

## TILNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

*Gulzodaxon Sultonqulova Avazjon qizi*

*Jizzax viloyati, G'allaorol tumani 37-maktab*

*Ingliz tili fani o'qituvchisi 99 100 22 58*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada lingvopragmatikaning rivojlanish tarixi, fan sifatida o'rganila boshlangani, tadqiq obyekti va bugungi tilshunoslikda tutgan o'rni borasida mulohaza qilingan. Lingvopragmatikaning ma'no ottenkalari va nutq vaziyatida bajaradigan vazifalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** *Lingvopragmatika, muloqot, nutq vaziyati, nutq mazmuni, nutqiy akt nazariyasi, deyksis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika, faoliyat, kommunikatsiya kategoriyasi.*

### KIRISH

Til doimo inson hayoti uning ijtimoiy faoliyati bilan uzviy bog'langan holda rivojlanadi va taraqqiy etadi. Til va hayot o'rtasidagi voqelik hech qachon uzilib qolmaydi. Insoniyat muloqotga ehtiyoj seza boshlagan ondan til shakllangan. Lisoniy belgilar orqali fikrini tinglovchiga yetkazishga uringan dastlabki inson ham tilning rivojiga o'zining o'sha harakati bilan hissa qo'shib ketgan. Demak, bugungi kunda takomillashayotgan tilni insondan uzib o'rganib bo'lmaganidek, muloqot jarayonida shaxs holatini ham hisobga olmaslik fikr maqsadini to'la ochib berolmaydi. Shu nuqtai nazardan semantika bag'ridan alohida bo'lib chiqayotgan "yosh va navqiron" pragmatika lisoniy belgilar va uning ifoda shakli orasidagi munosabatlarni tikladi va o'rganyapti.

Ma'lumki, tilning amaliy faoliyati nutqiy faoliyatda yuzaga chiqdi. Holbuki, bunda so'zlovchi boy lisoniy bilim zahirasiga ega bo'lishi va undan kerakli o'rinlarda foydalana olish qobiliyatini ham shakllantirmog'i lozim. Shaxs tafakkuri, milliy qadriyatlari, madaniyati, urf-odatlari, ruhiy olami so'zlar orqali fikrida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham rivojlanayotgan asrimizda tilning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni va ahamiyatini o'rganmay turib, tilga to'g'ridan to'g'ri nazariyalarni "qalashtirib" yondashib bo'lmaydi. Rus lingvofaylasufi G.V. Kolshanskiy lisonning subyektivligi haqida shunday deydi: "Til alohida shaxsning, insonning butun insoniyatning fikrlash qobiliyati alomatidir va shu sababli o'z tizimi va sturukturasida inson tomonidan olamni o'zlashtirilishining barcha xususiyatlarini, inson amaliy faoliyatining xususiyatlarini ijtimoiy va tabiiy muhit sharoitlarini ifoda etadi... Til obyektiv va subyektivdir, u o'z mohiyati bilan ikki tomonlama substansiya bo'lib, bir paytning o'zida borliqqa va insonga yuzlanadi". Dastlab til tizimining pragmatikadan

uzilgan holda o'rganilishi bu pragmatikaning yangi paydo bo'lgan soha sifatida qarashga asos bo'lmaydi. Chunki tildan uzilgan pragmatika yoki pragmatikadan uzilgan til bo'lmaydi. Til va inson bir-biri bilan chambarchas bo'lgani holda, lison so'zlovchining shaxsiy xohishi, ehtiyoji uchun xizmat qiladi. Inson ijtimoiy muhitda muloqot vaziyatining ishtirokchisi bo'ladi. Shu sababli pragmatik struktura ham doimiy o'zgarib, murakkablashib boradi.

### **ASOSIY QISM**

Til hamisha inson hayoti va ijtimoiy faoliyati bilan bog'liqdir. Tilning nafaqat aniq belgi sifatida, balki real hayotda va amalda ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilishini o'rganish tilshunoslar uchun muhim ahamiyatga ega. Til insonning mavjudligini, uning ijtimoiy tajribasini ta'minlovchi hodisadir. Zero, til faoliyati hodisasining mohiyati uning ijrochisi shaxs tomonidan belgilanadi va bu shaxs-ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarga kiradi. Nutqdagi oshkora va yashirin ma'nolarni tadqiq tahlil qilish, insonning o'zligini nutqi orqali namoyon etishi kabi masalalarni o'rganish bugungi o'zbekona tafakkur tarzi, milliy mafkura va milliy g'oya tushunchalarining mohiyatini ochishda muhim o'rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan insonning ob'ektiv olamdagi ijtimoiy faoliyati in'ikosi bo'lgan uning «harakat»dagi, «jonli» nutqini tadqiq etish faqat nazariy tilshunoslik uchungina emas, balki uning psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvistik geografiya, kommunikativ tilshunoslik, neyrolingvistika kabi umumtarmoqlari uchun ham katta ahamiyatga egadir. Insonning ob'ektiv olamdagi barcha ijtimoiy xatti-harakatlari uning nutqiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun inson nutqini o'rganish uning ma'naviy olami bilan tanishish imkonini beradi. Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog'idir. U insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ maqsad, nutqiy vaziyatning ta'siri bilan aloqador masalalarni hamda lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo'llanilishini o'rganadi. "Pragmatika" (yunoncha pragmos — ish, harakat, bajarilgan, degan ma'noni anglatadi) aslida XIX-XX asrlarga oid falsafiy tushunchadir. "Pragmatika" atamasini birinchi marta amerikalik olim Charlz Sanders Pirs kiritgan. Ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida pragmatizm keng tarqala boshladi. Amerika va Yevropa tashviqotining kengayishi uchun Charlz Pirs, Karnap, Charlz Morris va Vitgenshteynlarning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak. "Pragmatika" atamasi XX asr 30-yillarning oxirlarida Ch. U. Morris tomonidan ilmiy foydalanishga kiritilgan. Ammo lingvistik tadqiqotlar sohasi sifatida pragmatikani aniqlash va shakllantirish 60-yillar oxiri va 70-yillarning boshlarida Z. Vendler tomonidan nutq aktlarining mantiqiy va falsafiy nazariyalari ta'siri ostida o'rganildi. 60 - 70-yillarda til belgilarining nutqdagi amaliy qo'llanishiga hos kontekstual xususiyatlarini o'rganish bilan tilshunoslikda pragmatik yo'nalish yuzaga kela boshladi. Lingvistik pragmatikaning shakllanishi yirik olim L. Vitgenshteyning falsafiy qarashlari bilan bog'lik bo'lib,

aynan uning ishlarida pragmatik nazariy semiotik tadqiqotning mustaqil sohasi sifatida ko'rsatib o'tiladi. Lingvistik pragmatika falsafiy g'oyalar ta'sirida shakllana boshladi. Lingvistik pragmatika so'zlovchi ijtimoiy faoliyatining nutqdagi real ifoda masalalarini qamrab oladi.

Pragmatikaga qiziqish tilshunoslik fanining alohida tarmog'i sifatida shakllanishi uning oldiga qator masalalarni qo'ydi. Bizningcha pragmatikani tilshunoslikning boshqa sohalaridan ajratish va uning tadqiqiy manbasini chegaralash orqaligina uni yangi tarmoq sifatida talqin etish mumkin. Lingvistik pragmatikaning eng muhim jihatlaridan biri uning boshlang'ich chegarasini aniqlashdir. Tilshunos olim V.V.Petrovning til haqidagi quyidagi tezisi lingvopragmatikaning boshlang'ich tadqiqiy chegarasini aniqlash uchun lingvistik asos bo'ladi: "Inson qaysidir tilga hos semantik bilimlarsiz so'zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o'sha tilga hos semantik bilimlar egasi bo'lishning uzi ushbu tilga so'zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, masalan, musiqali piesa mazmunidan ogohlik uning ijrosi uchun yetarli bo'lmaydi, buning uchun, eng asosiy, ijro mahorati, layoqatiga ham ega bo'lishi lozim". Bizning qarashimiz bo'yicha, so'zlash va anglash jarayoni xam huddi shunday. Shuning uchun to'g'ri va aniq so'zlash uchun hammaga tushunarli bo'lgan semantik bilimlarni o'ziningina bilish yetarli emas, so'zlash va fikrni to'g'ri ifodalash uchun individual strategiya mahoratiga ham ega bo'lish lozim.

Nutqiy faoliyat til ham xuddi shunday inson semantik bilimlarga ega bo'lishi mumkin. Bunga ijtimoiy muhitning o'zi har qanday shaxs uchun ma'lum imkoniyatlarni yaratadi. Biroq semantik bilimlarga ega bo'lishning o'zi insonning so'zlash, fikrlash va ifoda mazmunini anglashi uchun kamlik qiladi. Inson tildagi barcha semantik ilmlarni bilish bilan birga ularni o'z maqsadi yo'lida tanlay olishi va ifodalash imkoniga ega bo'lishi lozim. Tildagi ayni mana shu jihatlarni lingvistik pragmatika o'rganadi. Pragmatika esa xarakterning shaxsga ta'sirini, uning fikrlash tarzi, axloqi va hissiyotlarini o'rganadi. Tilshunoslarning 12-xalqaro kongressida (Vena, 1977) J.Lyons pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va belgilashga harakat qildi: "Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan ma'lumotni ma'lumot sifatida qabul qilishga undash uchun muloqotda tegishli lingvistik birliklardan foydalanishni tavsiflaydi. Bu pragmatikaning rolini belgilashga qaratilgan shaxslararo muloqotda lingvistik vositalar".

Demak, yuqoridagi ta'rif til harakatining ko'zlangan maqsadi va unga erishish vositalariga asoslanadi. Shuningdek, pragmatikaning yo'nalishini o'rganuvchi fan, bu atama bilan bog'liq ishlar, pragmalingvistika deb ataladi. Sh. Safarov pragmatikaning umumiy ta'rifini quyidagicha umumlashtiradi: pragmatika tilshunoslikning alohida bo'limi bo'lib, bu birliklarning odamlarga ta'sirini o'rganish aloqa ishtirokchilari aloqa jarayonida til birliklarini tanlaydi va ishlatadi. Ushbu qoidalar muloqot kontekstidan ko'ra kengroq kontekstda o'rganiladi.

Til hodisalarini shu tarzda tahlil qilish ularning ma'lum bir muhitda qo'llanilishining to'siqlari va cheklovlarini aniqlash imkonini beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi tilning amaliy qo'llanilishiga nisbatan tabiatini aniqlash yoki boshqacha qilib aytganda, vazifa (funktsiya) tushunchasining o'zi til tahliliga pragmalingvistik yondashuvga asoslanadi. Ishonchimiz komilki, pragmalingvistikaning xuddi shu yo'nalishda rivojlanishi nazariy tilshunoslik va amaliy muloqot o'rtasidagi mavjud bo'lgan bo'shliqlarni toraytiradi".

Pragmalingvistikaga oid turli qarashlar tadqiqot predmetini kengroq tushunishga olib keldi. sohaning turli yo'nalishlarda rivojlanishi. Natijada pragmalingvistikaning nutq akti nazariyasi, deyxis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o'ziga xos "ichki" tarmoqlari mavjud. Bu sohalarning bir-biridan farqi, eng avvalo, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismini batafsil o'rganishda namoyon bo'ladi. Pragmalingvistikaning ta'rifi qanchalik xilma-xil bo'lishidan qat'i nazar, tadqiqotchilar quyidagi asosiy g'oyalarga rozi bo'lishadi:

- Kommunikativ faoliyatni tavsiflashning asosiy nuqtasi - bu faoliyat tushunchasi;
- Til - muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini faollashtirish vositasi;
- Til faoliyatining paydo bo'lishi muloqot muhiti bilan bevosita bog'liq bo'lgan hodisadir. Bularning barchasi pragmalingvistikaning muayyan sohalari uchun tadqiqot ob'ekti bo'lishi mumkin.

Masalan, lingvistik aloqa tizimi nutq predmeti nuqtai nazaridan o'rganilganda nutqiy harakat turlarining mazmuni, muloqot maqsadining o'rni, teg ifodasi kabi hodisalarga e'tibor beriladi. Lingvistik pragmatika tilshunoslikning nazariy jihatdan shakllangan bo'limi sifatida til darajalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikda alohida o'rin tutadi.

Xususan, fonopragmatiklik asosida ierarxik munosabatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan leksopragmatik, morfopragmatik va sintaktopragmatik talqinlari tilning fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabi darajali birliklarining pragmatik vazifasi shakllantiradi. Pragmatikaning bu darajadagi birliklarning vazifasi lingvistik pragmatizm nazariyasi uchun asosdir. Lingvistik pragmatizmning mohiyatini ifodalovchi nutq akti nazariyasini o'rganish tilning ekspressiv va tushunarli tabiatini ochish bilan uzviy bog'liqdir. Haqiqiy borliq olami bilan bog'liq barcha hodisalar o'zaro bog'langan bo'lib, ular tafakkur faoliyati quroli sifatida ongda inson sezgilari (ko'rish, eshitish, his qilish) vositalarida sintezlanadi va talaffuz harakati orqali tilda qaytadan namoyon bo'ladi.

## **XULOSA**

Lingvopragmatika zamonaviy tilshunoslikning bir bo'limidir. Ushbu yondashuv nutqqa inson faoliyatining asosiy turlaridan biri sifatida yondashadi: fikr almashish va

boshqalarga ta'sir qilish va uning ixchamligi, samaradorligi va unumdorligini, mantiqiylikini o'rganishga ustuvor ahamiyat beradi.

Xususan, bugungi jahon tilshunosligi nutqning faoliyat turi va uning mazmuni, ko'chma va teg ma'nolari, aniq ifodalanmaydigan, lekin maqsadi so'zlovchining ifodasi bo'lgan ma'lumotlarning qiymatini aniqlash usullarini ishlab chiqdi va u tezda nutqiy tilga aylandi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Aznaurova E.S. Badiiy so`z pragmatikasi - Toshkent: Mavzu, 1988. 28-bet.
2. Hakimov M. Study of the Pragmatics of Uzbek Language - Farg'ona, 2011.
3. F. Абдурахмонов, А. Сулаймонов, Х. Холиёров, Ж.Омонтурдиев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, “Ўқитувчи” - 1979, -208б.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, -2008 , -318 б
5. Хакимов, Муҳаммад. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. -Тошкент: Академнашр, 2013. -176 б.